



XORAZM JADIDCHILIK HARAKATINING O'RTA OSIYO JADIDCHILIGI TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Yusupova Laylo

*Guliston davlat universiteti Psixologiya
va ijtimoiy fanlar fakulteti
4-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada, Xorazm jadidchilik harakatining O'rta Osiyodatarixida tutgan o'rni, mavqei hamda amalga oshirgan ishlari haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** jadidlar, maktab, dastur, matbuot, nashriyot.*

Kirish: Mustaqillikdan keyin O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakati tarixini xolisona va haqqoniy o'rganishga yo'l ochildi. Oxirgi uch yillikda aholi o'rtasida jadidchilik harakati, bu harakatning namoyandalari hayoti va faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchaydi. Bunga esa tarixchilar tomonidan jadidlar harakatini yanada kengroq o'rganish ishlariga sabab bo'ldi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shuni bilamizki, XX asr boshida jadidchilik harakati O'rta Osiyoda eng ilg'or va yirik ma'rifiy-siyosiy harakat bo'lgan. Harakatning bosh maqsadi millatga o'ziligini tanitish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumni, ta'limni qat'iy isloh etish hisoblangan. O'rta Osiyodagi jadidchilik harakatining Rossiya imperiyasi hududidagi harakatdan xarakterli jihati shundaki, bu harakat O'rta Osiyoda bosqichma-bosqich rivojlanib, takomillashib bordi va ma'rifatchilikdan siyosiy harakatga aylandi.

Adabiyotlar sharhi: O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakati haqida Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Dilorom Alimova, Rustam Sharipov, Otamurod Qo'shjonov, Ne'matjon Polvonov, Qahramon Rajabov, Ulug'bek Dolimov, Adib Xolid, Edvard Olvort, Azamat Ziyo, Bahrom Irzayev va boshqa olimlar tomonidan muhim va katta tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Aynan bu olimlar tomonidan jadidchilik harakatining vujudga kelishi, o'lkadagi siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy roli haqida muhim ma'lumotlar berildi.

Tadqiqot natijalari: XIX asrning 90-yillarida O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining faoliyatini hududiy jihatdan uchga bo'lish (Buxoro jadidlari, Turkiston jadidlari, Xorazm jadidlari) to'g'riroqdir. Xorazm jadidchilik harakati tarixi Buxoro va Turkiston jadidchilik harakatlari tarixiga nisbatan kengroq o'rganilmagan. Asosan Xorazm (Xiva) jadidchilik harakati tarixi haqida Otamurod Qo'shjonov, Ne'matjon Polvonov, Dilorom Alimova, Ulug'bek Dolimov ilmiy asarlarida aniq va batafsil ma'lumotlar berilgan. Ma'lumki, Xorazm jadidchilik harakati XIX asrning oxiri — XX asrning boshida vujudga kelgan [1, 265-b]. Bu



harakatning vujudga kelishi yuqoridagi ikki harakatdan farqli jihati shunda ediki, Xorazm jadidchilik harakatining vujudga kelishida bevosita o'sha davrdagi hukumat, ya'ni xonlik hukumati ishtirok etgan. Olim Zaynobiddin Abdirashidov harakatning paydo bo'lishiga Ismoil G'aspirali va uning "Tarjumon" gazetasi ham turtki bo'lgan, degan fikrni bildiradi. Olimga ko'ra, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II "Tarjumon" gazetasi orqali Ismoil G'aspiralininig faoliyati va g'oyalari bilan yaqindan tanish bo'lgan va ularga yuqori baho bergan [2, 129-b]. Hattoki gazeta xonlikda shtatsiz muxbiri ega bo'lgan bo'lib, gazetaga xonlikdagi voqealar to'g'risida xabar bergan. Xorazm jadidchilik harakati Turkiston va Buxoro jadidchilik harakatlari kabi dastlab ma'rifatparvarlik yo'nalishida bo'lgan. Bu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II [3, 16], Pahlavon Muhammadniyoz mirzaboshi (Komil Xorazmiy)larning hissasi kattadir. Aynan uning tashabbusi va Muhammad Rahimxon II homiyligida 1874-yili Xivada toshbosma usulida chop etuvchi nashriyot tashkil etiladi [1, 267-b].

XIX asrning 10-yillari oxirida Rossiya imperiyasida yuz bergan siyosiy vaziyat O'rta Osiyoga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Endi jadidchilik harakatlari siyosiy harakatga aylanadi. Xorazm jadidchilik harakati ikki oqimga bo'lingan bo'lib, Islomxo'ja boshchiligida savdo-sanoat korxonalarini egalari hamda yirik boylardan iborat o'ng oqim bo'lgan bo'lsa [2, 134-b], so'1 oqim esa qozikalon Boboovun Salimov rahbarligidagi mayda tadbirkorlar, hunarmandlar va xalqning turli vakillaridan tashkil topgandi [1, 274-b]. Ammo tarixchi olimlar Otamurod Qo'shjonov, Ne'matjon Polvonovlar Xorazm jadidchilik harakatini oqimlarga bo'lish noto'g'ri ekanligini, sababi har ikkala oqimning a'zolari hukumat vakillari, yirik zamindor bo'lganligi, ikki oqimga bo'lish mustaqillikning ilk yillaridagi tadqiqotlar tufayli bo'lganligini ta'kidlaydilar [1, 275-b].

Shuningdek, Xorazm va Buxoro jadidchilik harakatlari bilan Turkiston jadidchilik harakatining maqsadi bir xil bo'lsa-da, uni amalga oshirish ikki yo'nalishda bo'lgan. Turkiston jadidlarining maqsadi o'lkani Rossiya imperiyasi mustamlakachiligidan ozod qilish bo'lsa, bu ikki harakatning maqsadi xon va amirning mutlaq hokimiyatini cheklash, uning hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o'tkazish, mamlakatda cheklangan hokimiyat o'rnatish edi. Jumladan, 1904-yil 10-noyabrda Muhammad Rahimxon II farmoni bilan Urganch shahrida birinchi jadid maktabi [1, 273-b], 1907-yilda Asfandiyorxon farmoni bilan Xivada "Maktabi Mahramiy", "Maktabi jadida" nomli jadid maktablari ochiladi [4, 84-b], yana 1906-yilda qizlar uchun ham Urganchda maktab tashkil etilgan [4, 83-b], bu maktablarda



Rossiya imperiyasidan taklif etilgan tatar o'qituvchilar dars bergan. Shuningdek, jadidlar tomonidan 10 moddali islohotlar dasturi [1, 277-b], Boboovun Salimov va Mulla Bekjon Rahmonovlar tomonidan jadid maktablari uchun "Alifbe", "O'qish kitobi" ishlab chiqildi [5]. 10 moddali islohotlar dasturi asosida o'qituvchilar, muhandislar, shifokorlar Xiva xonligida ish olib borishga taklif etiladi [1, 278-b] hamda Xo'jayli, Gurlan, Xonqa, To'rtko'l, Shovot shaharlarida jadid maktablari ochiladi [3, 17-b]. Shunisi e'tiborga molikki, Xorazmdagi jadid maktablarining tashkil etilishi va shakllanishi Buxoro va Turkiston jadid maktablaridan keskin farq qiladi. Buxoro va Turkistonda jadid maktablarining paydo bo'lishiga hukumat vakillari, amir, qushbegi, qozikalonlar qarshilik qilgan bo'lsa, Xorazmdagi jadid maktablariga asos solinishi aksincha hukumatning o'zi boshchilik qilgan, ammo mahalliy o'qituvchilar orasida bu o'qitish usuli keng tarqalmagani, jadid maktablarining Xorazmda ko'payishiga imkon bermadi [4, 86-b]. Misol uchun, XX asr boshida Turkiston va Buxoro amirligida 50 dan ziyod jadid maktablari bo'lgan bo'lsa [6], Xorazmda ularning soni 10 taga ham yetmagan [1, 273-b].

Bundan tashqari, Turkiston va Buxoro jadidlari maktablar uchun o'zlari darslik, o'quv qo'llanmalari yozib chop etishgan, maktablarda dars berishgan, usuli jadid o'qituvchilari aholi orasidan yetishib chiqqan bo'lsa, Xorazmda bu jarayon sodir bo'lmadi, Xorazm jadidchilik harakati jadid maktablariga faqatgina tatar o'qituvchilarni yollash, Turkiya va Bog'chasaroydan darslik, o'quv qo'llanmalarini sotib olish bilan shug'ullandi [3, 86-b]. Shuningdek, xonlikda bosmaxona bo'lishiga qaramasdan, jadid matbuoti tashkil qilinmadi, ammo aholining ziyoli qatlami Turkiya, Eron, Rossiya, Hindiston [1, 273-b],

Toshkent, Samarqand va Buxoroda [4] chop etilayotgan jadid gazeta va jurnallari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan [1, 274-b]. XX asrning 20-yillariga kelibgina Xorazmda vaqti nashrlar yo'lga qo'yiladi [7]. Biroq biz o'sha davrdagi Xorazm jadidchilik harakatining faoliyati haqida ma'lumotlarni "Yosh xivaliklar" partiyasi a'zolarining "Xotiralar" kitoblari orqali batafsil olamiz [1, 280-b].

Xulosa: Xorazm jadidchilik harakatining asos solinishiga yuqorida qayd qilinganidek, xonlik hukumati (Muhammad Rahimxon II, Komil Xorazmiy, Boboovun Salimov, Islomxo'ja), aholining yuqori va o'rta qatlam vakillarining (Bekjon Rahmonov, Avaz O'tar, Polvonniyoz Yusupov, Otajon Abdalov, Muhammad Yusuf Devonzoda) yangiliklarga, islohotlarga moyilligi katta turtki bo'ldi. Shuningdek, Turkiston va Buxorodagi singari xonlikda jadidchilik

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 8

g‘oyalarning keng tarqalishiga Ismoil G‘aspiralining fikrlari va targ‘iboti ta‘siri ham muhim rol o‘ynagan. Xorazm jadidchilik harakati tomonidan jadid maktablari tashkil etilishi, xonlikda bir qator ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishi, harakat dastlab xonlikdagi hukmron hukumat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishi, keyinchalik XX asrning 20-yillarida harakat siyosiy ahamiyat kasb etib, mavjud hukumatga muxolif bo‘lishi, “Yosh xivaliklar” partiyasi shakllanishiga sabab bo‘lishi bu uning katta yutug‘i edi. Ammo Xorazm jadidchilik harakatida matbuotning yo‘lga qo‘yilmaganligi, o‘z gazeta va jurnallarini nashr etishmaganligi, o‘z qarashlaridan ko‘proq aholining yuqori va o‘rta qatlam vakillari xabardor bo‘lgani, oddiy qatlam vakillarining jadidchilik g‘oyalari, harakatlari bilan har doim tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmaganligi, mahalliy aholi orasida jadid maktablarida faoliyat yuritadigan kadrlarning yetishtirilmaganligi jiddiy kamchiligi bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар: XIX аср иккинчи ярми - XX аср биринчи чораги. –Тошкент: “АВУМАТБУОТ-КОСАЛТ” МЧЖ, 2007. – 388 б.
2. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи –отношения – влияние. – Ташкент.: Akademnashr, 2011. – 384 с.
3. Алимова Д. Жадидчилик феномени. – Тошкент.: Akademnashr, 2022. – 272 б.
4. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент.: Университет, 2006. –128 б.
5. Саломов Ш. Тараққиёт йўлида маърифатпарварлик (1-бўлим) // <https://tarjumon.uz/taraqqiyyot-yolida-marifatparvarlik-1-bolim/>
6. Саломов Ш. Тараққиёт йўлида маърифатпарварлик (2-бўлим) // <https://tarjumon.uz/taraqqiyyot-yolida-marifatparvarlik-ii-bolim/>
7. Саиджонова З. Жадидчилик ва Хоразм адабий муҳити // <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/zebo-saidjonova-jadidchilik-va-xorazm-adabiy-muhiti/>
8. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. *Miasto Przyszłości*, 50, 548-553.
9. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. *Tamaddun Nuri Jurnalı*, 5(56), 380-383.
10. Axmedova, D., & Zarmaskhonov, S. (2024, February). Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 205-207).
11. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notiqlikning Milliy Madaniy Va Lisoniy Tahlili (O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Ia Karimov Nutqlari Asosida). In *Международная конференция академических наук* (Vol. 3, No. 1,



pp. 5-7).

12. Sattarova, D. (2023). Komunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. Молодые ученые, 1(22), 41-43.
13. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.
14. Suleymanova, N. M. (2020). On The Nominative Nature Of The Sentence. Theoretical & Applied Science, (4), 307-309.
15. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp. 76-82).
16. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapping Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. Academic research in educational sciences, 2(12), 805-809.
17. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In Инновации В Современном Языковом Образовании (pp. 61-65).
18. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 25-28.
19. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In Teaching English. In International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
20. Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. Confrencea, 6(6), 87-89.